XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 25-mart VI-19-22-1-19-K/26 Bo‘ston tumani

2026-yil Bo‘ston tumani bo‘yicha “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta’minlash va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Bo‘ston tumani hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Gaziyev, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari R.Ashurohunov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Shamsutdinov bilan

birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Gaziyevga, nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Mamarizayev hamda kotibiyat mudiri J.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror 2026-yil 1-iyul kunidan kuchga kiradi.

Kengash raisi **TUYCHIYEVA MATLUBAXON KAMOLDINOVNA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2026-yil 25-martdagi
VI-19-22-1-19-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar stavkalari

Yig‘im turi	**Bir oyga (so‘mda)**	
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	**300 000**	**360 000**
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	**150 000**	**180 000**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2026-yil 25-martdagi
VI-19-22-1-19-K/26 -son qaroriga
2-ilova

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: TF73031138

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASINING ANDIJON VILOYATI HUDUDIY BOSHQARMASI

COMPETITION PROMOTION AND CONSUMER PROTECTION COMMITTEE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ANDIJAN REGIONAL DEPARTMENT

170100, Andijon sh., Cho‘lpon shox ko‘chasi, 36-A uy, Tel.: (74) 223-57-00, Tel.: (74) 225-14-71
mail: an@antimon.gov.uz, e-xat: antimonandijon@exat.uz, www.antimon.gov.uz

2026-yil “18” mart № 01-010/2100

Bo‘ston tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Andijon viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan Bo‘ston tumani hokimligining 2026-yil 11-mart kungi 1686-sonli xatiga asosan Xalq deputatlari Bo‘ston tumani kengashining “2026-yilda Bo‘ston tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida”gi qaror loyihasini O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining raqobatga ta'sirini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni hamda Insofsiz raqobatni aniqlash metodikasini tasdiqlash haqida”gi 694-sonli qarori (1-ilovasi) bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining raqobatga ta’sirini baholash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosida ko‘rib chiqib, mazkur qaror loyihasining raqobatga ta’sirini baholash bo‘yicha xulosani ilovaga muvofiq taqdim etmoqda.

Ilova 3 (uch) varaqda.

Boshqarma boshlig‘i **A.Matmusayev**

Ijrochi: M.Kodirov
Telefon: (94)-109-02-17

QONUN HUJJATLARINING RAQOBATGA TA’SIRINI BAHOLASH BO‘YICHA

XULOSA № 03

I. Umumiy ma’lumotlar

Mazkur xulosa O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 694-sonli qarori (1-ilovasi) bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining raqobatga ta’sirini baholash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida tayyorlandi.

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihasining nomi va turi:

2026-yilda Bo‘ston tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida”gi qaror loyihasi.

2. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihasini taqdim etuvchi organ nomi:

Xalq deputatlari Bo‘ston tuman kengashi.

3. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihasini tayyorlash uchun asos:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-sonli qarorining 2-xatboshi “v”-bandi.

II. Tadbirkorlik subyektlarining asosiy guruhlari boshqa mas’ul shaxslar hamda taklif etilayotgan hujjatda davlat organlarining manfaatlariga doir masalalar tartibga solinadigan ma’lumotlar.

4. Hujjat bilan manfaatlari nazarda tutilayotgan guruh ishtirokchilarining tasnifi:

tadbirkorlik subyektlari guruhlari – ko‘rsatilmagan;
davlat organi – Bo‘ston tuman hokimligi va Bo‘ston tuman soliq inspeksiyasi;
boshqa ishtirokchilar guruhi munosabatlari - mavjud emas;

5. Yangi yoki amaldagi funksiyalarga kiritilayotgan o‘zgartirishlar, vakolatlar, majburiyatlar, imtiyozlar, preferensiyalar, davlat organlari huquqlari va ularni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida, shuningdek, kiritilayotgan cheklovlar bo‘yicha hamda boshqa ma’lumotlar:

Mavjud emas.

III. Raqobatga ta’sirning tahlili

6. Hujjatni qabul qilinishining oqibatlari prognozi

Mavjud emas.

7. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihasini raqobat muhitiga ta’siri bo‘yicha taklif va e’tirozlar:

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani kengashining 2026-yilda Bo‘ston tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida”gi qaror loyihasiga taklif va e’tirozlar yo‘q.

8. Mas’ul ijrochisi:

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Andijon viloyati hududiy boshqarmasining Raqobatni rivojlantirish bo‘limi.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasida:

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining:

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga va boshqa tashkilotlarga, yuridik shaxslarning birlashmalariga tovar yoki moliya bozorida raqobatni cheklashga hamda iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitishga olib keluvchi hujjatlarni qabul qilish hamda harakatlarni amalga oshirish (harakatsizlik), shu jumladan quyidagilar taqiqlanadi:

- faoliyatning biron-bir sohasida yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga yoki muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga nisbatan taqiq belgilash yoki cheklovlar joriy etish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tovar yoki moliya bozoriga kirishini cheklash yoki ularni undan chiqarib yuborish;
- shartnomalar tuzishda ustunlik berish, sotib oluvchilarning muayyan doirasiga tovarlarni birinchi navbatda realizatsiya qilish, moliyaviy mablag‘larning manbalarini tanlash va ulardan foydalanish yo‘nalishlarining afzalligi to‘g‘risida xo‘jalik yurituvchi subyektga ko‘rsatmalar berish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga asossiz ravishda to‘sqinlik qilish, shu jumladan tovarlarga yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilmagan talablarni belgilash yo‘li bilan to‘sqinlik qilish;
- tovarlarning erkin harakatlanishi va realizatsiya qilinishini qonunga xilof ravishda cheklash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tovarlarni yoki boshqa fuqarolik huquqlari obyektlarini tasarruf etish hamda ulardan foydalanish huquqlariga nisbatan taqiqlar yoki cheklovlar belgilash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tovarlarni sotib olish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish yoki tovarlarni sotib oluvchilarga bunday tovarlarni realizatsiya qiladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tiqishtirish yoxud ushbu subyektlarni tanlashda cheklovlar belgilash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarga axborotdan o‘z raqobatchilarining tovar yoki moliya bozorida kamsitilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tarzda ustuvor foydalanish imkoniyatini berish;
- ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar, engilliklar va eksklyuziv huquqlarni asossiz ravishda berish;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo‘lgan tarzda aralashish;
- respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining va boshqa tashkilotlarning, yuridik shaxslar birlashmalarining vazifalarini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan qo‘shib bajarish, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;
- ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shart-sharoitlar yaratish.

Alohida hollarda, tabiiy ofatlar, halokatlarning oqibatlarini tugatish va epidemiyalarning oldini olish maqsadida hamda favqulodda vaziyatlar davrida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlarni qabul qilishi va harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining va boshqa tashkilotlarning, yuridik shaxslar birlashmalarining tovar yoki moliya bozorida narxlarni sun’iy ravishda oshirishga, pasaytirishga, saqlab turishga olib keladigan harakatlariga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.

IV. XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining talablariga zid emasligini inobatga olib, Xalq deputatlari Bo‘ston tuman kengashining “2026-yilda Bo‘ston tumani bo‘yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida”gi qaror loyihasini qabul qilish maqsadga muvofiq.